O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2023 - yil 15 - avgust 347-4-0-Q/23 Qashqadaryo viloyati hokimligi

Qashqadaryo viloyati hokimligining 2023-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar va topshiriqlar, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlarining ijrosi hamda normativ-huquqiy hujjatlar bilan hokimlik zimmasiga yuklatilgan barcha vazifalarning to‘laqonli ijrosini ta‘minlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 26-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2023-yil II yarim yillik ish rejasi** to‘g‘risida”gi **56/76-sonli bayoni** rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimligining **2023-yil II yarim yillik ish rejasi** ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlab 2023-yilning 14-iyulida o‘tkazilgan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi **"Xalqimizning yuksak ishonchini oqlash, erishgan yutuqlarimizni yangi, yanada ulkan natijalar bilan mustahkamlash – bosh vazifamiz"** nomli ma’ruzasi;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan saylovoldi dasturi hamda hududlarda saylovchilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar doirasida ilgari surilgan tashabbuslar;

- Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining **"Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili"da** amalga oshirish **davlat dasturi;**

- ijro intizomini mustahkamlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doyr qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida**" 2021-yil 10-fevraldagi **PF-6166**-son Farmoni hamda "**Ijro.gov.uz**" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2021-yil 31-maydagi **PQ-5132**-son qarori;

- Davlat rahbarining respublika hududlaridagi uchrashuvlari va yig‘ilishlardagi ma’ruzalarida berilgan topshiriqlari ijrosini ta‘minlash viloyat hokimining o‘rinbosarlari, viloyat hokimligi apparati bo‘linmalari, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib belgilansin.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, maslahatchilari va yordamchilariga viloyat boshqarmalari, tuman va shaharlar hokimlari bilan birgalikda:

- O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarining bajarilishini ta‘minlashda ijro intizomiga qat‘iy rioya qilish va uni yanada mustahkamlash;

- Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlab 2023-yilning 14-iyulida o‘tkazilgan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi **"Xalqimizning yuksak ishonchini oqlash, erishgan yutuqlarimizni yangi, yanada ulkan natijalar bilan mustahkamlash - bosh vazifamiz"** nomli ma’ruzasi;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan saylovoldi dastur hamda hududlarda saylovchilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar doirasida ilgari surilgan tashabbuslar;

- Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining **"Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili"da** amalga oshirish **davlat dasturi;**

- ijro intizomini mustahkamlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doyr qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida**" 2021-yil 10-fevraldagi **PF-6166**-son Farmoni hamda **"Ijro.gov.uz"** ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2021-yil 31-maydagi **PQ-5132**-son qarori;

- Davlat rahbarining respublika hududlaridagi uchrashuvlar va yig‘ilishlardagi

ma’ruzalarida berilgan topshiriqlardan kelib chiqqan holda qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e‘tiborni qaratgan holda boshqarmalar hamda tuman va shahar hokimliklarining **2023-yil II yarim yilligi uchun ish rejalari** ishlab chiqilsin va tasdiqlansin;

- Ish rejalarini ishlab chiqishda viloyat hokimligining **2023-yil II yarim** yillikka mo‘ljallangan **ish rejasi** talablariga rioya etilsin.

- bir hafta muddatda tegishli boshqarmalar, idoralar, shahar (tuman)lar hokimliklarining 2023-yil **II yarim yillik ish rejalarini** tartibga solish bo‘yicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilsin;

- **doimiy va tizimli asosda** hokimliklar apparati va idoraviy mansub tarkibiy bo‘linmalarda ijro intizomining holatini tanqidiy o‘rganib chiqilishini (ishlab chiqilgan reja-jadvalga muvofiq) ta‘minlash;

- **bir hafta muddatda** viloyat hokimligi apparatining tegishli tarkibiy bo‘limlariga 2023-yil I yarim yilligi ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlarni taqdim etish topshirilsin.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga:

- viloyat hokimi va uning o‘rinbosarlari rahbarlik qiladigan amaldagi komissiyalar (kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) faoliyatini, ularning maqsadli vazifalarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarilishini tashkil qilish;

- yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi **(ijro.gov.uz)** orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini o‘z muddatida sifatli va to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to‘g‘ri rasmiylashtirilishiga alohida e‘tibor qaratish;

- 2023-yil **II yarim yillik ish rejasi**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, viloyat hokimining topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish, komplekslar tarkibiga kiruvchi boshqarma, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari, shahar, tumanlar hokimliklarining ishlari rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejalari tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish choralarini ko‘rish.

6. Belgilab qo‘yilsinki, viloyat hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari ish rejada belgilab qo‘yilgan vazifa va masalalarning o‘z vaqtida to‘liq bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha shaxsan mas‘uldirlar.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari,

viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i (A.Erkayev) zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **M.Azimov**

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 15-avgustdagi
347-4-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qashqadaryo viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari va uning kotibiyatining 2023-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan

I SH R E J A S I

№	**Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi**	Ijro muddati	**Mas’ullar:**
2023-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish			
1.	Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi hamda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash va zaxirasini yaratish bo‘yicha hududlarda ko‘rilayotgan choralar samaradorligi oshirish.	doimiy	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, N.Qurbonov** Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Markaziy bank *(kelishuv asosida),* Kompleks tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar
2.	Hududlarda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi hamda bu borada soha va hududlar rahbarlarining mas’uliyati to‘g‘risida.	har oyda bir marotaba	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, N.Qurbonov** Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi
3.	2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlaridagi topshiriqlarning ijrosini ta’minlash natijalari to‘g‘risida.	doimiy	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, F.Xo‘shmurodov, N.Qurbonov,** Kompleks tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar.
4.	Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha topshiriqdar ijrosini ta’minlashda vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari, tijorat banklari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirish.	dekabr	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, F.Xo‘shmurodov, N.Qurbonov,** Kompleks tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar.

5.	Davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida amalga oshirilishi belgilangan loyihalar bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi to‘g‘risida.	doimiy	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, N.Qurbonov** Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi
Iqtisodiyot va bank-moliya sohasini kompleks rivojlantirish masalalari			
6.	**Bank faoliyati sohasidagi munosabatlarni takomillashtirish** chora-tadbirlari natijadorligini tahlil qilish.	doimiy	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, F.Xo‘shmurodov,** Markaziy bank
7.	**Hunarmandchilik namunalari,** jumladan, milliy cholg‘u asbob-uskunalari tayyorlash tizimini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini tahlil qilish.	oktabr	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, F.Xo‘shmurodov, N.Qurbonov,** Hunarmandchilik uyushmasi, Kompleks tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar.
8.	Bank tizimida **muammoli kreditlarni undirish** bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida.	doimiy	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, F.Xo‘shmurodov,** Markaziy bank
9.	**Oilalarni mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ajrimlarni oldini olish** borasida **hududlarda oilabay va mahallabay** amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligi to‘g‘risida.	oktabr	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, F.Xo‘shmurodov, N.Qurbonov,** Kambagallikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi **R.G‘ofurov,** Kompleks tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar.
10.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida" 2023-yil 10-apreldagi PQ-118-son qarorida** belgilangan vazifalar bajarilishini o‘z vaqtida sifatli ta’minlash.	doimiy	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, N.Qurbonov,** Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi
11.	Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari bitiruvchilarini hududlardagi **"Ishga marhamat" monomarkazlarida kasb-hunarga o‘qitib, ularni munosib ish o‘rinlari bilan ta’minlash va o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlarini yaratish** choralarini ko‘rib borish.	doimiy	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, F.Xo‘shmurodov, N.Qurbonov,** Kambagallikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi **R.G‘ofurov,** Kompleks tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar.

12.	Mahallalarda kasanachilikni tashkil etish va rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish; **mahallalarda ishsiz fuqarolarni kasanachilikka jalb qilish bo‘yicha davlat tomonidan rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish; kasanachilik mahsulotlarining kooperatsiya usulida, shu jumladan elektron savdo platformalari orqali** sotilishiga tizimli ko‘maklashish.	doimiy	Kotibiyat mudiri **A.Berdiyev, F.Xo‘shmurodov, N.Qurbonov**, Kambagallikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi **R.G‘ofurov**, Kompleks tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar.

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 15-avgustdagi
347-4-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Qashqadaryo viloyat hokimligi qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyatining 2023-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan
ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
	I. Kotibiyatning 2023-yil II yarim yillikda 2023-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari		
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonidan kelib chiqadigan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 03-avgustdagi “Qishloq xo‘jaligi sohasiga ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-257-son qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagi “2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-260-son qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari
4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli Farmonida belgilangan ustufor vazifalarni o‘z vaqtida sifatli bajarishini ta’minlash.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari
5.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-sonli Farmonida belgilangan ustufor vazifalarni o‘z vaqtida sifatli bajarishini ta’minlash.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari
6.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-22-aprel kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan majlis bayoni ijrosini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar tahlili.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
	II. Kotibiyatning 2023-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar natijadorligi tahlillari		
7.	Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar doirasida shartnoma tuzish, tijorat banklariga kredit hujjatlarining topshirilishi, moliyalashtirish va qurish ishlarining borishini tahlil qilish hamda viloyat hokimiga axborot berib borish.	avgust	Viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, Markaziy bank va tijorat banklari A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari
8.	G‘alladan bo‘shagan maydonlarga takroriy ekinlarni joylashtirish va oziq-ovqat ekinlarining ekilishini tahlil qilish.	iyul, avgust	A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari
9.	2024-yil hosili uchun qishloq xo‘jaligi ekinlari joylashuvi bo‘yicha taklivlar ishlab chiqib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish.	avgust	Tumanlar hokimlari A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari
10.	Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini tashkil qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va xizmat ko‘rsatuvchi obyektlar tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha ishlar holatini tahlil qilish.	har oyda	Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Qishloq xo‘jaligi, Yer resurslari va davlat kadastri, Markaziy bank bosh boshqarmalari, tumanlar hokimliklari A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
11.	2023-yilda viloyatda chorvachilik loyihalarini rivojlantirish hamda chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil qilish loyihalarini bajarilishi tahlil qilish.	har oyda	Viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi, Markaziy bank va tijorat banklari, tumanlar hokimlari A.Abdurahmonov, S.Turdialiyev
12.	Viloyatda davlat dasturi asosida amalga oshiriladigan irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarining bajarilishi yuzasidan har oylik ma’lumotlarni tahlil qilib borish va rahbariyatga ma’lumot kiritish.	har oyda	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, “Qashqadaryo suvqurilishinvest” DUK, tumanlar hokimliklari A.Abdurahmonov, E.Hasanov
13.	Fuqarolar murojaati bilan ishlash, viloyat hokimligiga qishloq va suv xo‘jaligi sohasi bo‘yicha og‘zaki murojaat qilgan fuqarolarni belgilangan tartibda qabul qilish va natijasi bo‘yicha rahbariyatga axborot berish.	doimiy	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari
14.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 08-avgustdagi “Agrar va oziq-ovqat sohalari uchun subsidiya ajratish tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-331-sonli qarorining tahlil qilish.	doimiy	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
15.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi “Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirishning uzluksizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi PF-98-sonli qarorining tahlil qilish.	har chorakda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati A.Abdurahmonov, kotibiyat mutaxassislari
16.	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha meliorativ obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va tizimli ta’mirlash tiklash hamda va irrigatsiya obyektlarida kapital qurilish tadbirlarining amalga oshirilishini ta’minlash	avgust	Tumanlar hokimliklari A.Abdurahmonov, E.Hasanov
17	O‘simliklarning karantin va boshqa zararkunandalari, kasalliklar va begona o‘tlarning tarqalishini monitoring qilish va prognozlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish.	avgust	O‘simliklari karantini va himoyasi boshqarmasi, tumanlar va shaharlar hokimliklari A.Abdurahmonov, S.Turdialiyev
18.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi “Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 239-son qarorini ijrosini tahlil qilish.	har chorakda	O‘simliklari karantini va himoyasi boshqarmasi, tumanlar va shaharlar hokimliklari A.Abdurahmonov, S.Turdialiyev
19.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 05-iyundagi “Pillachilik sohasida kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-85-son qarorini ijrosini tahlil qilish.	har chorakda	Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish boshqarmasi, tumanlar va shaharlar hokimliklari A.Abdurahmonov, O.Hakimov

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
20.	2024-yil hosili uchun kuzgi boshoqli don ekinlarini ekilishini tahlil qilish.	sentabr, oktabr	Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari g‘avza boshqarmasi, tumanlar hokimlari A.Abdurahmonov, E.Hasanov
21.	2024-yilda kam hosilli va yaroqsiz bog‘lar o‘rnida zamonaviy intensiv bog‘lar tashkil etilishini tahlil qilish.	oktabr, noyabr	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tumanlar hokimliklari A.Abdurahmonov, S.Turdialiyev
22.	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yerlarning shamol eroziyasiga hamda suv xo‘jaligi obyektlarini qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish.	oktyabr, noyabr	Viloyat ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi, tumanlar hokimliklari A.Abdurahmonov, S.Turdialiyev
23.	Kartoshkachilik sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, investitsiya loyihalari va yo‘l xaritalari ijrosini tahlil qilish.	oktabr	Kartoshkachilar uyushmasi, tumanlar hokimliklari, A.Abdurahmonov, S.Turdialiyev
24.	Chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik va baliqchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, investitsiya loyihalari va yo‘l xaritalari ijrosini tahlil qilish.	noyabr	Moliya, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish, Markaziy bank, Qishloq xo‘jaligi, tumanlar va shaharlar hokimliklari, A.Abdurahmonov, E.Hasanov

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
25.	Ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, investitsiya loyihalari va yo‘l xaritalari ijrosini tahlil qilish.	noyabr	Qishloq xo‘jaligi, Bandlik, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish boshqarmasi , tumanlar va shaharlar hokimliklari, A.Abdurahmonov, S.Turdialiyev
26.	Viloyatda klaster korxonalari va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan qishloq xo‘jalik texnikalari bilan ta’minlanganlik darajasi, yangi texnikalarni xarid qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rganish, tahlil qilish.	noyabr	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, “Qashqadaryo agroservis MTP” MCHJ, “Agrolizing” AJ viloyat filiali, tumanlar hokimliklari A.Abdurahmonov, S.Turdialiyev
27.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-maydagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va o‘rmon fondi yerlarining yer fondi toifalarini o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha hukumat komissiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 222-son qarorining ijrosi.	noyabr	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, “Qashqadaryo agroservis MTP” MCHJ, “Agrolizing” AJ viloyat filiali, tumanlar hokimliklari A.Abdurahmonov, O.Hakimov
28.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 05-apreldagi “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-113-son qarorining ijrosi.	noyabr	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, “Qashqadaryo agroservis MTP” MCHJ, “Agrolizing” AJ viloyat filiali, tumanlar hokimliklari A.Abdurahmonov, O.Hakimov
	III. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari ijrosini maqsadli o‘rganish		

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
29.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 01-apreldagi “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-107-sonli qarorini tahlil qilish.	dekabr	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, tumanlar hokimlari A.Abdurahmonov, E.Hasanov
30.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-fevraldagi “Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-24-son farmonining ijrosi to‘g‘risida.	dekabr	Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Qarshi tumani hokimligi A.Abdurahmonov, E.Hasanov S.Turdialiyev
31.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-apreldagi “Qishloq xo‘jaligi korxonalari dala chetlaridagi yer maydonlarida mahsulot yetishtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-121-son qarorini joylardagi ijrosini o‘rganish.	dekabr	A.Abdurahmonov, E.Hasanov S.Turdialiyev

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 15-avgustdagi
347-4-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

.

Qashqadaryo viloyati hokimining o‘rinbosari, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari kotibiyatining 2023-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro uddati	Mas’ullar:
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o‘tkazilgan majlislar yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi qurilish sohasidagi topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish.	II yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilot va korxonalar viloyat hokimligi, (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va ““Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizmi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashgaa qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qaroridan kelib chiqadigan qurilish sohasidagi vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	II yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar viloyat hokimligi, (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro uddati	Mas’ullar:
3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-465-sonli qaroriga muvofiq 2023-yil investitsiya dasturiga asosan 166 ta ijtimoiy va infratuzilma obyektlarida qurilish-ta’mirlash ishlarini belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirish.	II yarim yillikda	Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Buyurtmachi tashkilotlar, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
4	2023-yil investitsiya dasturiga asosan viloyat hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DUK buyurtmachiligida 79 ta ijtimoiy va infratuzilma obyektini ishlab chiqilgan tarmoq jaddvallari asosida foydalanishga topshirish.	II yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DUK Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
5	2023-yil investitsiya dasturiga asosan yangidan quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va kapital ta’mirlanadigan 25 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabni joriy yilning sentabr oyiga qadar foydalanishga topshirilishini ta’minlash.	II yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DUK Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro uddati	Mas’ullar:
6	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-465-sonli qaroriga muvofiq 2023-yil investitsiya dasturiga asosan viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DUK yildan yilga o‘tuvchi 24 ta obyektda qurilish ta’mirlash ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish.	II yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DUK Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
7	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi PQ-465-sonli qarori 7-ilovasiga muvofiq Qarshi shahridagi viloyat perinatal markazi (200 o‘rinli viloyat perinatal markazi, 200 o‘rinli shahar tug‘ruqxonasi, 50 qatnovli skrining markazi, 50 qatnov reproduktiv markazi) binosini kurilish ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish.	II yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DUK Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro uddati	Mas’ullar:
8	Qarshi shahrida viloyat qo‘g‘irchoq teatrini qurish obyektining dastlabki loyihasidan tashqari ya’ni, tushirib qoldirilgan demontaj ishlari (mavjud qurilishlarni buzish), qo‘g‘irchoq teatri binosidagi umumiy qurilish ishlari, tashqi pardoz, favvora qurilishi, 2 ta dam olish ayvoni, 4 ta dekorativ skameyka, 2 ta (100 m3) yong‘inga qarshi rezervuar, 1 ta (100 m3) oqova suv o‘rasi, hududni obodonlashtirish, sug‘orish tarmog‘i, ko‘kalamzorlashtirish, yomg‘irlatib sug‘orish tizimi, metall panjara, nasos stansiyasini qurish, badiiy bezash ishlari, favvora qurish ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish.	II yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi,| viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DUK Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
9	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi “2022–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-98-sonli qarori bilan qurilishi belgilangan Muborak tumani “Yangi qoraqum” massivi "Istiqlol" MFYda hududidagi 660 o‘rinli yangi maktab (660 o‘quvchi o‘rinli yangi o‘quv binosi va 12x24 o‘lchamli sportzal) qurish ishlari yakunlash va sentyabr oyiga qadar foydalanishga topshirish.	II yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DUK Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro uddati	Mas’ullar:
10	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qarori ijrosi yuzasidan 511 ta mahalla bo‘yicha 772 ta loyiha (obyekt)da qurilish-ta’mirlash ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish.	II yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Buyurtmachi tashkilotlar, viloyat hokimligi, (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
12	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-avgustdagi “Mahallalarda infratuzilmani yaxshilash orqali aholiga qulay sharoitlar yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 435-sonli qaroriga asosan 32 ta mahallaga ajratilgan 64 mlrd so‘m mablag‘ hisobidan qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish belgilangan 133 ta obyektning qurilish-ta’mirlash ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish.	II yarim yillikda	urilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Buyurtmachi tashkilotlar, viloyat hokimligi, (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro uddati	Mas’ullar:
13	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus farmoyishi bilan 421 mlrd so‘m ajratilishi hisobiga qurilish ta’mirlash ishlari olib boriladigan 222 ta obyektni qurilish ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish	II yarim yillikda	urilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Buyurtmachi tashkilotlar, viloyat hokimligi, (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
14	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlariorqali aholini uy-joy bilan ta’minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-51-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maksadida “Yangi O‘zbekiston” massivlarida 2023-yilda 67 ta shundan Koson tumani “Do‘stlik” MFYda 32 ta (688 xonadon), Yakkabog‘ tumani “Ayg‘irko‘l” MFYda 27 ta (748 xonadon) hamda Qarshi tumani “Chaman” MFYda 8 ta (468 xonadon) ko‘p qavatli uy-joylarni foydalanishga topshirilishini ta’minlash.	II yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, Tuman (shahar)lar hokimlari, viloyat hokimligi, (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro uddati	Mas’ullar:
15	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-32-sonli Farmoniga asosan Yakkabog‘ tumani “Ayg‘irko‘l” MFYdagi qurilishi belgilangan ijtimoiy soha 1 ta 330 o‘rinli maktab va 1 ta 120 o‘rinli maktabgacha ta’lim muassasalarini sentabr oyiga qadar foydalanishga topshirilishini ta’minlash.	II yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, “Yagona buyurmachi xizmati IK” DUK, Yakkabog‘ tumani hokimi, viloyat hokimligi, (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
16	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-iyundagi 108-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-yil uy-joy dasturiga kiritilgan 168 ta (5020 xonadon) ko‘p qavatli uy-joylarni oyma-oy tasdiqlangan tarmoq jadvali asosida foydalanishga topshirilishini ta’minlash.	II yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, “Yagona buyurmachi xizmati IK” DUK, Tuman(shahar)lar hokimlari viloyat hokimligi, (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro uddati	Mas’ullar:
17	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyuldagi PQ-316-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy Dasturi”ga asosan 2023-yilda viloyatida, shahar yo‘lovchi transporti bekatlarini yo‘lovchilarga zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni real vaqt rejimida elektron taqdim etuvchi 10 dona monitor bilan jihozlash, 30 dona avtobus oraliq bekatlarini qurish va rekonstruksiya qilish, 3 dona avtovokzal va avtostansiyalar qurish va rekonstruksiya qilish, 5 dona yangi jamoat transporti yo‘nalishlarini tashkil qilish	II yarim yillikda	Viloyat transport boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.To‘xtayev)
18	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi “2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 201-sonli qarori 1-ilovasi “2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlari”ning 26-bandiga asosan viloyatda 35 dona bekatlar tashkil etish, jamoat transporti uchun 103 dona yangi avtobus va mikroavtobuslar xarid qilish. (70 ta avtobus, 33 ta mikroavtobus)	II yarim yillikda	Viloyat transport boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari viloyat hokimligi |(B.To‘rayev, Sh.To‘xtayev)
19	Viloyat hududidagi 2023-yilda 315 ta mahallalardagi 2 720 km.dan ortiq yo‘llar holatini yaxshilash va 27 ta ko‘priklar tiklash	II yarim yillikda	Viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi, Tuman(shahar)lar hokimliklari, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.To‘xtayev)
20	“Ochiq byudjet” loyihasi bo‘yicha 93 mlrd so‘m va “Mening yo‘lim” loyihasi bo‘yicha 33,6 mlrd so‘m mablag‘lar yo‘llarni ta’mirlashga yo‘naltirish	II yarim yillikda	Viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Tuman(shahar)lar hokimliklari, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.To‘xtayev)

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro uddati	Mas’ullar:
21	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-465-son qaroriga muvofiq 2023-yil investitsiya dasturiga asosan 15 ta ichimlik va oqova suv obyektlarida 150,6 trln so‘mlik qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va davlat ekspertiza xulosasi olish, tender (tanlov) savdolariga e’lon berish va uni o‘tkazilishini ta’minlash, qurilish ishlarini boshlash va moliyalashtirishni ochish, qurilish-ta’mirlash ishlarini jadallashtirish	II yarim yillikda	“Qashqadaryo suv ta’minoti” MCHJ “Suv ta’minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo‘yicha IK” DUK, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.Qodirov)
22	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qarori ijrosi yuzasidan 120 ta mahalla bo‘yicha 118,8 mlrd so‘mlik 391,1 km ichimlik suv va 33,2 km oqova suv ta loyiha (obyekt)da qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish belgilangan obyektlaning loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va davlat ekspertiza xulosasi olish, tender (tanlov) savdolariga e’lon berish va uni o‘tkazilishini ta’minlash, qurilish ishlarini boshlash va moliyalashtirishni ochish, qurilish-ta’mirlash ishlarini jadallashtirish.	II yarim yillikda	“Qashqadaryo suv ta’minoti” MCHJ “Suv ta’minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo‘yicha IK” DUK, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.Qodirov)
23	2023-yilda 225,0 km. uzunlikdagi past kuchlanishli elektr tarmoqlari va 50 dona transformator punktlarini qurish va rekonstruksiya ishlarini bajarish (35 mlrd. so‘m)	II yarim yillikda	“Qashqadaryo hududiy elektr tarmoqlari” AJ, Tuman (shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.Qodirov)
24	2023-yilda debitor qarzdorlikni kamida 12 foizga qisqartirish bo‘yicha tarmoq jadvali asosida ijrosini ta’minlash.	II yarim yillikda	“Qashqadaryo hududiy elektr tarmoqlari” AJ, Tuman(shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.Qodirov)

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro uddati	Mas’ullar:
25	6,0 km gaz tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash	II yarim yillikda	“Hududgaz Qashqadaryo” gaz ta’minoti filiali, Tuman(shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.Qodirov)
26	Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimi (ASKUG) ni joriy etish loyihasi bo‘yicha 3012 dona elektron gaz hisoblagichlarni hamda 640 ta gaz regulyatorlarini o‘rnatish.	II yarim yillikda	“Hududgaz Qashqadaryo” gaz ta’minoti filiali, Tuman(shahar)lar hokimlikari viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.Qodirov)
27	2023-yilda debitor qarzdorlikni kamida 30 foizga qisqartirish bo‘yicha tarmoq jadvali ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash.	II yarim yillikda	“Hududgaz Qashqadaryo” gaz ta’minoti filiali, tuman(shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.Qodirov)
28	2023-yilda debitor qarzdorlikni kamida 30 foizga qisqartirish bo‘yicha tarmoq jadvali asosida oyma-oy qarzdorlikni kamaytirish.	II yarim yillikda	Viloyat ekologiya va atrof muhitni muhofoza qilish boshqarmasi, Tuman(shahar)lar hokimliklariga, viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.Qodirov)
29	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasini tayyorlash va tegishli vazirlik, idoralar bilan kelishilishini ta’minlash.	II yarim yillikda	Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmalari, Kommunal soha tashkilotlari, tuman (shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi (B.To‘rayev, Sh.Qodirov)

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 15-avgustdagi
347-4-0-Q/23-son qaroriga
4-ilova

.

Qashqadaryo viloyat hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyatining 2023-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan
ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022- yil 20- dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida ijtimoiy majmuaga tegishli vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Barcha ijtimoiy majmuaga tegishli tashkilotlar
2.	2023-yil - “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” Davlat dasturi loyihasiga takliflar berish va Dastur qabul qilingandan so‘ng ijtimoiy majmuaga tegishli bandlari ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Barcha ijtimoiy majmuaga tegishli tashkilotlar
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, farmoyish, qaror va majlis bayonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident Administratsiyasi topshiriqlarini o‘z vaqtida ijrosini ta’minlash va nazoratga olish.	doimiy	**S.Saidov, I.Norqulov**
4.	Ota-onalar bilan ta’lim muassasasi o‘rtasida hamkorlikning samarali yo‘lga qo‘yish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari raisligida, psixolog, Yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar qo‘mitasi, kasaba uyushma qo‘mitasi tomonidan jinoyat sodir etishga moyil, notinch oila farzandlari va ularning ota-onalari bilan alohida tarbiyaviy ishlarni olib borish.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Barcha ijtimoiy majmuaga tegishli tashkilotlar

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
5.	Yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun shart-sharoitlarni yaratish, jumladan, o‘quvchilarini kasbga o‘rgatish.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi viloyat hududiy boshqarmasi
6.	Viloyat bo‘yicha 2023/2024 o‘quv yili uchun mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda viloyatdagi **33 ta** kasb-hunar maktablariga qabul parametrlarini shakllantirish; Viloyatdagi professional ta’lim muassasalari o‘quvchi yoshlarining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tanlovlar va sport musobaqalarini o‘tkazish.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi viloyat hududiy boshqarmasi
7.	Sport maktablariga 4 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan sport bilan muntazam shug‘ullanish va kelgusida professional sportchi bo‘lish maqsadidagi bolalar va yoshlarni qabul qilish bo‘yicha ishlarni muntazam amalga oshirish.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Viloyat Yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi, Yoshlar ishlari boshqarmasi
8.	Har bir umumiy o‘rta ta’lim maktabida futbol, basketbol, voleybol, gandbol va boshqa jamoaviy o‘yin turlari bo‘yicha jamoalar tuzish hamda muntazam ravishda maktab jamoalari o‘rtasida musobaqalarni o‘tkazib borish orqali yoshlarni sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Viloyat Yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi, Yoshlar ishlari boshqarmasi
9.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4887-sonli qarori ijrosini ta’minlash.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
10.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4891-sonli qarori ijrosini ta’minlash.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi
11.	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi *(sog‘liqni saqlash tizimiga oid barcha tashkilot va muassasalar bilan birga)* faoliyatini muvofiqlashtirib borish.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi
12.	O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 26-apreldagi “Sanitariya-epidemiologiya xizmati takomillashtirishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-685-son Qonunning ijrosini ta’minlash. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4790-sonli qarori ijrosini ta’minlash.	II yarim yillikda	S.**Saidov, I.Norqulov,** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati viloyat boshqarmasi
13.	Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini ta’minlash.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati viloyat boshqarmasi

№	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
14.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6260-son Farmonida belgilangan vazfilarning sifatli bajaralishini ta’minlash; “Tashabbusimiz, iqtidorimiz, kuch-qudratimiz - Vatan uchun” shiori doirasida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan jamoaviy madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlari o‘tkazish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.	II yarim yillikda	**S.Saidov, I.Norqulov,** Yoshlar ishlar boshqarmasi, Yoshlar ittifoqi, “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi
№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
39.	Kinematografiya agentligi tomonidan yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi bunyodkorlik ishlari, barcha sohalarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, bunyodkor yoshlar obrazlarini yaratishga bag‘ishlangan filmlar ishlab chiqilishiga takliflar kiritish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Kinematografiya agentligi viloyat bo‘limi boshlig‘i (D.Xoliqov).
40.	Viloyat, tuman (shahar)lardagi madaniyat markazlarida milliy filmlar namoyishini, kinoijodkorlar bilan ijodiy kechalar va davra suhbatlarini o‘tkazish. Viloyatdagi faoliyat yuritmayotgan madaniyat markazlarida davlat-xususiy sheriklik va boshqa samarali mexanizmlardan foydalangan holda kinozallar tashkil etish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Kinematografiya agentligi viloyat bo‘limi boshlig‘i (D.Xoliqov).
41.	Kvotalash tizimi doirasida shahar va tumanlardagi kinoteatrlar tomonidan namoyish etilayotgan milliy filmlarning namoyish vaqtlarini Kinematografiya agentligi viloyat xududiy bo‘limi bilan kelishish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Kinematografiya agentligi viloyat bo‘limi boshlig‘i (D.Xoliqov).
42.	Shahar va tumanlardagi oromgohlar hududida yozgi (ochiq) kinoteatrlar tashkil etish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Kinematografiya agentligi viloyat bo‘limi boshlig‘i (D.Xoliqov).

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
43.	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi “2018-2019-yillarda zamonaviy kinoteatrlar tarmog‘ini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 372-son qarori doirasida qurilgan kinoteatrlarning joriy holati, dastur asosida amalga oshirilgan ishlar va imkoniyatlardan maqsadli foydalanilishi bo‘yicha hisobotlarni Respublika komissiyasiga taqdim etib borish. Maqsadsiz foydalanilgan holatlar bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdimnoma kiritish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Kinematografiya agentligi viloyat bo‘limi boshlig‘i (D.Xoliqov).
44.	Kinematografiya agentligi viloyat hududiy bo‘limining notijorat tadbirlarini viloyat televideniyasi va tashqi reklama obyektlarida ijtimoiy reklama uchun ajratilgan vaqt doirasida joylashtirish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Kinematografiya agentligi viloyat bo‘limi boshlig‘i (D.Xoliqov).
45.	Ma’naviy tahdidlarga va har qanday salbiy ta’sirlarga qarshi turishga qodir bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan, yoshlar ongida mustahkam milliy tafakkurni, jamiyatda yuz beradigan voqea hodisalarga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishga, ularning axloqiy madaniyatni yuksaltirishga, tarixiy milliy qadriyatlarimizni, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini chuqur o‘zlashtirshlariga xizmat qiladigan filmlar namoyishini mahallalarda, harbiy qismlarda, ta’lim muassasalarida, tashkillashtirish, aholi va yoshlar bilan kinoijodkorlar o‘rtasida ijodiy uchrashuvlar tashkil etish, ana shunday uchrashuvlar chog‘ida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash mavzulariga bag‘ishlangan badIIy va hujjatli filmlar namoyishini tashkillashtirish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Kinematografiya agentligi viloyat bo‘limi boshlig‘i (D.Xoliqov).

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
46.	**2023-yil - “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”** munosabati bilan Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida ko‘chma kinoqurilmalar yordamida Viloyatning kinoteatrlari mavjud bo‘lmagan chekka hududlarida, qishloq-ovullarda, ta’lim muassasalarida aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida milliy istiqlol g‘oyasini keng targ‘ib etish, dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarga nisbatan yurtdoshlarimizda ongli munosabatni, faol grajdanlik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan filmlar namoyishilarini tashkillashtirish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Kinematografiya agentligi viloyat bo‘limi boshlig‘i (D.Xoliqov).
47.	Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat hokimligiga, Kinematografiya agentligiga, tegishli tashkilotlarga, ma’lumotlar va hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etib borish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Kinematografiya agentligi viloyat bo‘limi boshlig‘i (D.Xoliqov).
Madaniy meros yo‘nalishi			
48.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining qarorlari va farmoyishlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmonlari. O‘zbekiston Respublikasi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi va “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlarni bajarilishi yuzasidan aniq tadbirlarni belgilash va bajarilishini ta’minlash.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i (O.Hamidov).

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
49.	Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishga oid ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha boshqarma mansabdor shaxslari tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish hamda qonunda belgilangan tartibda sudga yuborish: - moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish hamda davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish bo‘yicha javobgarlikni kuchaytirish; aniqlangan qonun buzilish holatlari bo‘yicha tuplangan hujjatlarni prokuratura organlariga o‘z vaqtida va sifatli yetkazilishini ta’minlash;	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i (O.Hamidov).
50.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 265-sonli qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Madaniy meros obyektlariga jamoatchi nazoratchilarni tayinlash va muhofaza belgilarini o‘rnatish ishlarini jadallashtirish va yakuniga yetkazish choralarini ko‘rish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5150-sonli qarorini bajarish yuzasidan hududdagi barcha madaniy meros obyektlarini tarixiy ekspertizadan o‘tkazish va pasportlarini ishlab chiqish va tashkil etish	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i (O.Hamidov).
51.	Moddiy Madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarining alohida muhim tarixiy-madaniy qismlari va badiiy bezaklari saqlanishini ekspertizadan o‘tkazish, ularni to‘liq fotofiksatsiya va identifikatsiyalash.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i (O.Hamidov).

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
52.	Arxeologiya ashyolarini davlat katalogini elektron shaklda joriy etish: -so‘nggi 30 yil davomida o‘tkazilgan arxeologiya tadqiqotlari davomida topilgan arxeologiya ashyolarining hujjatlashtirilishi, ishonchli saqlanishi va muhofaza qilinishi xolatini malakali mutaxassislarni jalb etgan holda tekshirish hamda arxeologiya ashyolari davlat katalogiga kiritish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i (O.Hamidov).
53.	Tumanlar kesimida arxeologiya yodgorliklari katalogini; yangi arxeologik kashfiyotlarga asoslangan holda tarixiy shaharlar, arxeologiya merosi obyektlariga bag‘ishlangan fundamental monografiyalar va ilmiy-ommabop risolalar; - dala tadqiqotlari natijalariga bag‘ishlangan “Viloyat arxeologik tadqiqotlari” davriy to‘plami; Viloyat arxeologiya xaritasi; arxeologiya yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat va magistrtura talabalari uchun “O‘zbekiston arxeologiyasi”, “Arxeologik dala qazuv tadqiqot metodikasi” kabi adabiyotlar.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i (O.Hamidov).
54.	Madaniy merosni keng targ‘ib etish maqsadida: “O‘zbekkino” Milliy agentligi tomonidan har yili maxsus hujjatli filmlar tayyorlash; “O‘zbekiston moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari” ensiklopediyasini nashr etish, shu jumladan, uni elektron shaklini yaratish;	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i (O.Hamidov).

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
55.	Restavratsiya, konservatsiya va ta’mirlashga muxtoj obyektlarni aniqlash, ular uchun nuqson dalolatnomalarini tuzish, ro‘yxatini shakllantirib ma’muriyatga taqdim etish. Viloyat hududida joylashgan barcha madaniy meros obyektlarida ularning saqlanishi va holati bo‘yicha doimiy monitoring o‘tkazib borish; aniqlangan yangi obyektlarni davlat ro‘yxatiga kiritish, chiqarilishi lozim topilganlarini davlat ro‘yxatidan chiqarish bo‘yicha ma’muriyatga takliflar kiritish. Qonun buzilish holatlari aniqlanganda zarur hujjatlarni rasmiylashtirib huquqni muhofaza qilish organlariga o‘tkazilishini ta’minlash. Viloyat hududida davlat Dasturi asosida ta’mirlanayotgan obyektlarda ta’mirlash ishlarining borishi sifati, va miqdori bo‘yicha doimiy nazorat ishlarini olib borish.	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i (O.Hamidov).
56.	Kadrlar sohasida ish yuritishni tashkil qilish, mehnat munosabatlarini belgilovchi – ishga qabul qilish, boshqa ishga o‘tkazish, mehnat shartnomasini rasmiylashtirish va bekor qilish, mehnat ta’tili, xizmat safariga oid buyruqlarni tayyorlash, rasmiylashtirish. Qashqadaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi xodimlarining kasbiy saviyasi va malakasini oshirish, shuningdek, ularni qayta tayyorlash bo‘yicha takliflar tayyorlash. Mehnat intizomini buzganlik, yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida yoki lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan rahbarga taklif kiritish. Boshqarmada vakant lavozimlarni tanlovga berish. my.mehnat.uz da mehnat daftarchalarini yuritish, xodimlar haqida ma’lumotlarni kiritib borish, bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida hisobot berib borish	2023-yil II yarim yillik	Viloyat hokimligi kotibiyati mudiri (M.Qurbonov), Viloyat hokimligi birinchi toifali mutaxassisi (S.Ziyadullayev), Viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i (O.Hamidov).

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 15-avgustdagi
347-4-0-Q/23-son qaroriga
8-ilova

Oila va xotin-qizlar kotibiyatining 2023-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan ISH REJASI

	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	**Ijro muddati**	**Mas’ullar:**
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida sifatli amalga oshirilishini ta’minlash.	II yarim yillik davomida	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, barcha tegishli hamkor tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy Dastur va 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasiga taqdim etib borish	II yarim har chorakda	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko‘tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o‘rgatish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 29-iyundagi 300-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan “Yo‘l xatirasi” ijrosini ta’minlash hamda mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat shtabi faoliyatini muvofiqlashtirib borish, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasiga axborot kiritib borish.	II yarim yillik davomida	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari, tegishli boshqarma va tashkilotlar

4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashrifi yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalarda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash.	II yarim yillik davomida	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, tegishli tashkilot va boshqarmalar, shahar va tumanlar hokimliklari
5.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022-yil 1-mart kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 18-sonli bayonida xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash bo‘yicha berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash.	II yarim yillik davomida	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari
6.	Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashi huzuridagi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasini ishini samarali tashkil etish va bu borada amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga axborot kiritib borish.	II yarim yillik 3-4-chorakda	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasi a’zolari
7.	Joylarda 4-bosqich “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlash, shuningdek ularni ish bilan ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilishda bilim va kasb-hunar o‘rganish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Bandlik bosh boshqarmasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, “Xunarmand uyushmasi”, viloyat xotin-qizlar tadbirkorlik markazi, Markaziy bank va tijorat banklari, shahar va tumanlar hokimliklari
8.	Oilaviy ajrimlar va ularni oldini olish bo‘yicha hududiy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha ishchi guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish, amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilib borish, Oila maktablari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va har oyda O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasiga axborot berish.	2023-yil har oyda	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, shahar va tuman hokimliklari

9.	Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish hamda og‘ir turmush sharoitida yashayotgan, nogironligi bo‘lgan ayollarga yordam berish maqsadida: xotin-qizlarning kichik tadbirkorlik loyihalariga imtiyozli kreditlar berish; og‘ir turmush sharoitidagi, nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarni arzon uy-joylar bilan ta’minlash maqsadida uylarning boshlang‘ich badalini to‘lab berish; xotin-qizlarni reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash choralarini ko‘rish.	II yarim yillik davomida	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Xalq banki, Agro bank, Mikrokreditbank, sog‘liqni saqlash boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari
10.	Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti tanlovining tuman(shahar) hamda viloyat bosqichini o‘tkazish, respublika komissiyasiga mukofot hujjatlarini o‘z vaqtida va sifatli taqdim etilishida ko‘maklashish.	2023-yil oktabr-noyabr	Zulfiya nomidagi davlat mukofoti viloyat komissiyasi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti tuman (shahar) komissiyasi
11.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 27- apryeldagi KQ-340-IV- sonli qaroriga asosan “Yil ayoli” va “Gender tenglik faoli” milliy tanlovlarini o‘tkazish.	2023-yil oktabr-noyabr	Viloyat hokimligi, Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati, tuman (shahar) hokimliklari
12.	“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari asosida boshqarma, idora va tashkilotlarda, o‘quv muassasalarida, mahallalarda xotin-qizlar o‘rtasida tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borish.	II yarim yillik davomida	Viloyat adliya boshqarmasi, Oila va Xotin-qizlar boshqarmasi, oliy o‘quv yurtlari, Viloyat statistika boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari, tegishli boshqarma va tashkilotlar
13.	Xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida mahallalarda xotin-qizlar o‘rtasida yugurish, yengil atletika, basketbol, velosport, gimnastrada kabi sport musobaqalarini o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish.	2023-yil 2-chorak	Viloyat hokimining o‘rinbosari-oila va xotin-qizlar boshqarmasi, mahalliy teleradiokompaniya, viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi, viloyat Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari

14.	Viloyatdagi har bir boshqarma va tashkilot mehnat jamoalarida tashkil etilgan Oila va xotin-qizlar boshlang‘ich tashkilotlari hamda Ayollar maslahat kengashlari ish samaradorligini oshirish.	II yarim yillik davomida	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman(shahar)hokimliklari
15.	Viloyatda uzoq muddatga chet davlatlarga chiqib ketgan xotin-qizlarni hamkor tashkilotlar bilan birgalikda qaytarish choralarini ko‘rish. Chet elda bo‘lib qaytgan ayollarga ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi va zarur hollarda sog‘lomlashtirish ishlarini amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Viloyat IIB, Viloyat ko‘nikma markazi, tuman(shahar) hokimliklari
16.	Xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarlik va turli salbiy holatlarning oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillik davomida	Viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Viloyat IIB, Viloyat ko‘nikma markazi, tuman(shahar)hokimliklari
2023-yil 2-yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar natijadorligi tahlili			
17.	**Mirishkor tumanida** xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va hususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etishni har tomonlama manzilli qo‘llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirayotgan ishlarni tahlil qilish.	oktabr	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi, bandlik boshqarmasi, markaziy bank, Mirishkor tuman hokimligi
18.	**Qamashi tumanida** joriy etilgan xotin-qizlar bilan ishlashning yangi tizimi “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning muammolari bilan ishlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligini tahlil qilish.	noyabr	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi, bandlik boshqarmasi, markaziy bank, Qamashi tuman hokimligi
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va hukumat qarorlari ijrosini maqsadli o‘rganish			

19.	**Shahrisabz tumanida** Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasi faoliyatini o‘rganish, farmoni ijrosini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish.	sentabr	Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti viloyat komissiyasi, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti Shahrisabz tumani komissiyasi
20.	**Muborak tumanida** O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan tashkil etilgan 1211-qisqa raqamli ishonch telefonlariga kelib tushayotgan murojaatlarni ijrosini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlarni o‘rganish	avgust	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Muborak tumani hokimligi

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 15-avgustdagi
347-4-0-Q/23-son qaroriga
9-ilova

Viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisining 2023-yilning 2-yarim yilligiga mo‘ljallangan
ISH REJASI

№	**Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi**	**Ijro muddati**	**Mas’ullar:**
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi **“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** PF-5850-son va 2020-yil 20-oktabrdagi **“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PF-6084–sonli Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining davlat tiliga doir qabul qilingan qarorlari mazmun mohiyatini tushuntirish, targ‘ib qilish hamda ijrosini muhokama qilish.	har oyda har chorakda	Viloyat hokimining maslahatchisi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda
2.	Vazirlar Mahkamasining davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash va sohaga oid yangiliklarni targ‘ib qilib borish	har haftada bir marotaba	Viloyat hokimining maslahatchisi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda
3.	Viloyatdagi barcha korxona va tashkilotlar tarkibida ish yuritish, shuningdek barcha idoralararo hujjatlar aylanishi davlat tilida bo‘lishini to‘liq ta’minlash va bu jarayonda davlat tiliga qat’iy amal qilishni nazorat qilish.	har chorakda har chorakda	Viloyat hokimining maslahatchisi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda

4.	Viloyat hokimligi va uning tuzilmalarida xodimlar hamda boshqa tillarda so‘zlashuvchi xodimlar uchun Qarshi davlat universiteti huzurida tashkil etilgan Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazlarida o‘qishlarini tashkil etish.	taqsimot asosida har chorakda	Viloyat hokimining maslahatchisi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o‘quv yurtlari, viloyat xalq ta’limi boshqarmasi va hamkor tashkilotlar bilan birgalikda
5.	Viloyat hokimligi va uning tuzilmalarida, tashkilotlar hamda mahallalarda davlat tilida ish yuritish, geografik obyektlar va davlat tiliga oid qonun hujjatlariga rioya etish bo‘yicha soha mutaxassislarini jalb etgan holda seminarlar, davra suhbatlari tashkil etish	reja asosida har oyda doimiy	Viloyat hokimining maslahatchisi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o‘quv yurtlari, viloyat xalq ta’limi boshqarmasi bilan birgalikda
6.	Ommaviy axborot vositalari, Internet saytlari, xususan, **“til.gov.uz”** saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarning belgilangan kanal va guruhlarida davlat tiliga bag‘ishlangan turkum materiallar berib borish, shuningdek, davlat tiliga doir yoritilgan materiallarni tahlil qilish hamda o‘z munosabatini bildirish.	muntazam	Viloyat hokimining maslahatchisi, viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, viloyat Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda

7.	Viloyatda **“O‘zbek tili bayrami kuni”**ni keng nishonlash bo‘yicha barcha tashkilot va mahallalarda madaniy-ma’rifiy va boshqa tadbirlarni tashkil etish.	sentabr-oktabr oktabr noyabr	Viloyat hokimining maslahatchisi, viloyat Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o‘quv yurtlari, viloyat xalq ta’limi boshqarmasi, viloyat madaniyat boshqarmasi bilan birgalikda
8.	Davlat tilida ish yuritish va o‘zbek tilini yanada rivojlantirish borasidagi ishlarda, ilmiy tadqiqotlarda va tashkiliy vazifalarni bajarishda yuqori ko‘rsatkichga erishgan rahbar va mutaxassis kadrlarini, ilmiy xodimlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar kiritish	doimiy avgust-sentabr sentabr-oktabr	Viloyat hokimining maslahatchisi, viloyat Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o‘quv yurtlari, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi bilan birgalikda

9.	Davlat bayrog‘ining fuqarolarda o‘z ona Vatani bilan g‘ururlanish tuyg‘usini yuksaltirish, yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini e’tiborga olgan holda 18-noyabr – “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan kun munosabati bilan joylarda bayram tadbirlarini tashkil qilish.	noyabr	Viloyat hokimining maslahatchisi, viloyat Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o‘quv yurtlari bilan birgalikda
10.	Milliy bayramlar, tarixiy sanalar, ulug‘ ajdodlarimizning tavallud ayyomlarini tantanali nishonlash shakli va mazmuni bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.	noyabr	Viloyat hokimining maslahatchisi, viloyat Madaniyat boshqarmasi, viloyat Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o‘quv yurtlari, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi bilan birgalikda

11.	**8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** qabul qilinganining 31 yilligi munosabati bilan ijodiy uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etish.	dekabr	Viloyat hokimining maslahatchisi, viloyat Madaniyat boshqarmasi, viloyat Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o‘quv yurtlari, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi bilan birgalikda
12.	**10-Dekabr – “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”**gi Qonunin qabul qilingan kun munosabati bilan xalqimiz, aynisa, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish, madhiyaning milliy birlikni mustahkamlashdagi tarixiy ahamiyatini tarannum qilishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish.	dekabr	Viloyat hokimining maslahatchisi, viloyat Madaniyat boshqarmasi, viloyat Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o‘quv yurtlari, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi bilan birgalikda

13.	**“Davlat tili haqida”** va **“Reklama to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari ijrosini doimiy o‘rganib borish, viloyat hududidagi barcha tashqi yozuvlar, shu jumladan, peshlavhalar, reklama va e‘lonlar, ko‘rgazmali boshqa axborot matnlarining mazmuni davlat va jamoat manfaatlariga, axloq va odob normalariga muvofiqligini hamda davlat tilida bo‘lishini ta‘minlash.	iyun-iyul avgust, har hafta yakunida, har oy yakunida	Viloyat hokimining maslahatchisi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o‘quv yurtlari, “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasi viloyat bo‘limi bilan birgalikda
14.	Viloyat hududidagi barcha mahalla va ko‘chalarning nomlari **“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”** va **“Davlat tili haqida”**gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari talablari muvofiq bo‘lishini ta’minlash.	muntazam har chorakda belgilangan muddatda	Viloyat hokimining maslahatchisi, Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o‘quv yurtlari bilan birgalikda
15.	Respublika va viloyat miqyosida nashr etiladigan ro‘znoma hamda OAV (“O‘zbekiston 24” va viloyat teleradiokompaniyasi) larda **“Tilga e‘tibor”** rukni ostida **“Ona tilida so‘zlashamiz”, “Notiqlik mahorati”, “Til – millat ko‘zgusi”, “Kitob bilim manbai”, “Bilimli yoshlar – kelajak bunyodkori”** kabi mavzularda turkum maqolalar berib borish.	doimiy	Viloyat hokimining maslahatchisi, viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, viloyat Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 15-avgustdagi
347-4-0-Q/23-son qaroriga
10-ilova

Qashqadaryo viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyatining 2023-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan
ISH REJASI

	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	**Ijro muddati**	**Mas’ullar:**
I. 2022-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha takliflari			
1.1	Import hajmlari va tarkibini o’rganib chiqib, mahalliylashtirish va modernizatsiya qilish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida respublikada ishlab chiqarilishi o‘zlashtirilgan mahsulotlar importini qisqartirish.	II yarim yillik mobaynida, har oyning 15-sanasiga qadar	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, viloyat Bojxona boshqarmasi
II. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq va samarali foydalanish orqali import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish sohasida			
2.1	Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2023-yilda ishga tushirilishi mo‘ljallangan loyihalar ijrosining monitoringi va nazoratini tashkil etish.	Har oyda	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Tuman va shahar hokimliklari,

	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	**Ijro muddati**	**Mas’ullar:**
2.2	Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ko‘maklashish, tegishli tadbirlarning o‘z vaqtida va samarali ijro etilishiga tusqinlik qilayotgan muammolarni aniqlab, tizimli tahlil o‘tkazish, yakuniy natijalarga erishish uchun ularni hal etishda, shu jumladan joyiga chiqqan, holda zarur yordam ko‘rsatish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.	Har oyda	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Tuman va shahar hokimliklari,
2.3	Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirilishini bo‘yicha belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari natijadorligini joyiga chiqqan holda o‘rganish, maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va sifatli ijrosini ta’minlamagan mas’ullarga nisbatan choralar ko’rish	Har chorakda	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Tuman va shahar hokimliklari
2.4	Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan loyihalar doirasida 2023-yilning I yarim yilligida yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarilishini mahalliylashtirish orqali import o‘rnini bosuvchi qurilish materiallari mahsulotlari hajmini 1,2 barobarga yetkazish bo‘yicha ishlar olib borish	Har chorakda	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, “O’zqurilishmateriallari” uyushmasi viloyat vakili
III. Sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish sohasida			
3.1	Yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish.	II yarim yillik mobaynida	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Yirik tarmoq korxonalari rahbarlari

	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	**Ijro muddati**	**Mas’ullar:**
3.2	Elektron kooperatsiya portali orqali tuzilgan shartnomalar ijrosini doimiy monitoring qilib borish.	Har oyning 10-sanasiga qadar	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Tuman va shahar hokimliklari
3.3	Tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarni kengaytirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ishtirokida shartnomalarni onlayn tarzda elektron kooperatsiya portali orqali tuzilishini nazarda tutuvchi hududiy sanoat mahsulotlari yarmarkalarini o‘tkazish.	Reja grafik asosida	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Tuman va shahar hokimliklari
IV. 2021-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar natijadorligi tahlillari			
4.1	Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasi qarorlarining to‘liq, ijrosini ta’minlash bo‘yicha doimiy monitoring va nazoratni tashkil etish.	II yarim yillik mobaynida har oyda	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati
V. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq va samarali foydalanish orqali import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish sohasida			

	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	**Ijro muddati**	**Mas’ullar:**
5.1	Charm-poyabzal sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo‘nalishlarni belgilash, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg‘unligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirilishini “ichki bozor ehtiyojlarini o‘rganish - importni tahlil qilish - resurs bazasini aniqlash - yangi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish” tamoyili asosida rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.	Har chorakda	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, “O‘zcharmsanoat” uyushmasi viloyat vakili, Tuman va shahar hokimliklari
5.2	To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Har chorakda	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi viloyat vakili, Tuman va shahar hokimliklari
5.3	Aholini farmatsevtika mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash maqsadida yangi turdagi farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish bo’yicha yangi loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlash.	Har chorakda	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi,
5.4	Aholini elektrotexnika mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash maqsadida yangi turdagi elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish bo’yicha yangi loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlash.	Har chorakda	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, “O‘zeltexsanoat” uyushmasi viloyat vakili,

	Ustuvor vazifalar. o‘rganiladigan masalalar mavzusi	**Ijro muddati**	**Mas’ullar:**
VI. Sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish sohasida			
6.1	Viloyatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ro‘yxati, ishlab chiqaruvchilari, ularning texnik parametrlari va quvvatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni elektron kooperatsiya portaliga (cooperation.uz domeni ostida) joylashtirib borilishini ta’minlash, shuningdek portal orqali tuzilayotgan shartnomalar bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rish.	II yarim yillik mobaynida	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi
6.2	Xorijiy kompaniyalar va tashkilotlarning takliflari va salohiyatini o‘rganish asosida import o‘rnini bosuvchi mahsulot turlarini o‘zlashtirish bo‘yicha xorijiy sheriklarni sanoat kooperatsiyasiga keng jalb etish choralarini ko‘rish.	Har chorakda	Viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023-yil 15-avgustdagi
347-4-0-Q/23-son qaroriga
11-ilova

Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limining 2023 yil 2-yarim yillikka mo‘ljallangan ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining saylovoldi dasturi hamda 2023-yil 14-iyul kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutqida belgilangan ustuvor vazifalar.			
1.1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14-iyul kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqida ta’kidlangan "Har bir kun - bu imkoniyat, har bir kun - bu kelajak poydevori" tamoyili asosida viloyat hokimligi ijro intizomi Nazorati bo‘limida ish samaradorligini ta’minlash.	II yarim yillikda	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi, viloyat hokimligi apparati kotibiyatlari va guruhlar bilan birgalikda
1.2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning hududlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni bilan tanishish maqsadidagi tashriflari, shu jumladan Qashqadaryo viloyatiga tashriflari davomida bergan topshiriqlari ijrosini ta’minlanishi ahvolini tahlil qilib borish.	Muntazam ravishda	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi
1.3	O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari ijrosining nazoratini tashkil etish.	Muntazam ravishda	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi
1.4	Topshiriqarning belgilangan muddatlarda sifatli va to‘liq bajarilishi ustidan tizimli nazorat olib borish.	Muntazam ravishda	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi,
II. Nazorat va ijro intizomi bo‘limi ish faoliyatini takomillashtirish.			

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
2.1	Viloyat hokimligi apparati tarkibiy bo‘linmalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi **PF-6166-sonli** Farmoni, **“Ijro.gov.uz”** ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi **PQ-5132-son** qarori va boshqa tegishli hujjatlar talablariga muvofiq hujjatlarni to‘liq hisobga olish, ularning bajarilishini nazorat qilish yuzasidan tizimli ishlarni olib borish va muhokama qilish.	Har haftaning juma kuni	Viloyat hokimi o‘rinbosarlari, viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, viloyat hokimligi apparatining bo‘linmalari rahbarlari bilan birgalikda
2.2	O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari hamda viloyat hokimining nazoratdagi topshiriqlari elektron bazasini shakllantirib, tahlil qilish va muhokama qilib borish.	Muntazam ravishda	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi, viloyat hokimligi apparatining bo‘linmalari rahbarlari bilan birgalikda
2.3	Bajarilish muddati kelgusi oyda tugaydigan nazoratdagi qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni (eslatma) viloyat hokimligi apparati bo‘linmalari kesimida shakllantirish. Viloyat hokimining topshirig‘i bilan viloyat hokimligi apparatining barcha bo‘linmalari rahbarlari hamda mutaxassislariga yetkazish va topshiriqlarning belgilangan muddatlarda bajarilishi ustidan tizimli nazorat o‘rnatish.	Har oyning 25-sanasiga qadar	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi
2.4	Muddati o‘tgan nazoratdagi qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari hamda kelgusi haftadagi topshiriqlar bo‘yicha eslatmalarni shakllantirish va viloyat hokimligi apparatining barcha bo‘linmalariga yetkazish.	Har haftaning chorshanba va juma kunlari	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim mutaxassisi

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
2.5	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida"gi Farmoni loyihasini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan hamkorlikda ishlash.	Topshiriqqa asosan	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim mutaxassisi.
III. Ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha:			
3.1	O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, hukumat qarorlari va farmoyishlari ijrosi holatini “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi ma’lumotlari asosida muhokama qilishni tashkil etish: har hafta juma kunlari — viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari; har hafta dushanba kunlari — viloyat hokimi huzurida;	Muntazam ravishda	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi
3.2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning **“Ijro.gov.uz”** idoralararo yagona ijro intizomi elektron tizimiga kiritib borilishini tashkil qilish.	Muntazam ravishda	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi
3.3	O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo‘yicha viloyat hokimining hujjatlari va amalga oshirish grafiklarini (**nazorat rejalarini**) o‘z vaqtida ishlab chiqilishini tizimli hisobga olish va nazorat qilish bo‘yicha tahliliy materiallarni viloyat hokimiga kiritish.	Haftaning har dushanba kuni	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi
3.4	**“Ijro.gov.uz”** ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning belgilangan muddatlardan kechiktirilishi holatlari ko‘p uchraydigan boshqarma va tashkilotlarda yo‘lga qo‘yilgan nazorat tizimini o‘rganish hamda o‘rganish natijalari bo‘yicha kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan rahbarlarning viloyat hokimligi apparati yig‘ilishida hisobotlarini eshitishni tizimli yo‘lga qo‘yish.	Topshiriqqa asosan	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar:
3.5	O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligi bilan birgalikda **“Ijro.gov.uz”** idoralararo yagona elektron tizimida ishlash bo‘yicha hamkorlikni davom ettirish.	Muntazam ravishda	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi
3.6	O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va hukumat qarorlarining bajarilishi yuzasidan 1-va 2-jadvallar bo‘yicha hisobotlarni tumanlar va shaharlar hokimliklaridan qabul qilib olish.	Har oyning 5-sanasiga qadar	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi, tuman va shaharlar hokimlari
3.7	O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va hukumat qarorlarining bajarilishini: 3-va 4-jadvallar asosida monitoringini yuritish; 3-4 jadvallar bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga hisobot topshirish.	Har oyning 5-sanasiga Har chorakda	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi
3.8	Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, bo‘linma rahbarlari va mutaxassislarning ish rejalari tuzilishini nazorat qilish va ularning monitoringini yuritish.	Muntazam ravishda	Viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassisi
IV. Ijro intizomini raqamlashtirish			
